

NIKOH TO‘YI BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA MAROSIMLAR (SURXON VOHASI MISOLIDA)

Jumaqulova Farangis Alisher qizi,
Termiz iqtisodiyot servis universiteti
Tarix ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Surxon vohasining aholisining to‘y marosimlari va nikoh to‘yi bilan bog‘liq urf-odatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada Surxon vohasi nikoh to‘ylaridagi har xil udumlarning aholi yashash joyi va sharoitiga qarab turlichcha bo‘lganligi ham tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: to‘y sepi, fotiha to‘yi, kelin salom, kuylow chaqirdi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны свадебные обряды и обычаи народов Сурханского оазиса. Также в статье анализируется тот факт, что свадебные обряды бракосочетания Сурханского оазиса различались в зависимости от места проживания и условий жизни населения.

Ключевые слова: свадебное приданое, помоловка, приветствие невесты, приглашение жениха в гости в дом родителей.

ABSTRACT

This article describes the wedding ceremonies and customs of the peoples of the Surkhan oasis. The article also analyzes the fact that the wedding ceremonies of the Surkhan oasis differed depending on the place of residence and living conditions of the population.

Keywords: wedding dowry, betrothal, greeting the bride, inviting the groom to visit his parents' house.

KIRISH

O‘zbekiston janubidagi Surxon vohasi o‘ziga xos tarixiy-etnografik mintaqaga bo‘lib, unda nomoddiy madaniyatning noyob namunalari – to‘y marosimlari va nikoh to‘yi bilan bog‘liq urf-odatlar saqlanib qolgan. Xalqimizda baxtli onlarni oila, qarindosh-urug‘, mahalla, yaqin insonlar davrasida “to‘y” berib nishonlash qadim zamonlardan qolgan urf-odatdir. Shu bilan birga “to‘y” etnosning madaniyati, urf-odati, qarindosh urug‘chilik va qo‘sničilik munosabati, mentaliteti, diniy qarashlari va tasavvurlari, an‘anaviy marosimlarini o‘zida mujassam etgan voqelikdir.

Ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kunda aksariyat yurtdoshlarimiz ushbu marosimni islomiy urf-odatlar, o‘zbekona kamtarlik va andisha, oilaning real

iqtisodiy holati va bozor iqtisodiyotiga mos ravishda nishonlash o‘rniga, mahalla, qo‘ni-qo‘shni, qon-qarindosh qarshisida “hech kimdan kam bo‘lman” (kerak bo‘lsa ortig‘i bilan, lekin aslo kam emas) qabilida nishonlashga tobora ko‘nikib borayotganlari achinarli haqiqatdir. Bu transformatsiya sabablarini aniqlash va tahlil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizning boshqa hududlari singari Surxon vohasida ham aksariyat hollarda oilada qiz bola tug‘ilganida chilla o‘tishi bilan boshqa oilalardan qizcha katta bo‘lganida uni o‘z o‘g‘liga olib bermoqchi bo‘lganlar va uni unashadirishgan. Surxon vohasining Xatak, Xo‘janqon, Bedak, Tangidevon, Yoriqsoy qishloqlarida quloqtishlar, beshikkerti degan tushunchalar yo‘q. Uning o‘rniga, beshik to‘yida unashadirildi, deb aytishadi. Unashadirish uchun to‘qqiz tandir non va bir dona kulcha, to‘qqiz patir va bir dona patir kulcha, to‘qqiz qatlama va bir dona qatlama kulcha, to‘qqiz qatpatir va bir dona qatpatir kulchasi, jami 40 ta non zarur bo‘ladi. Shundan to‘rttasi kulchadir. Rizqi butun bo‘lsin deb nonning soni qirqa qilinadi. Negaki, qadimda bug‘doyning o‘zidan qirq turdagiga taom tayyorlangan. Nondagi to‘qqiz soni ota-onasi, kulcha esa, bolachasi hisoblangan. Ayrim boy kishilar qatpatirga sariyog‘, imkoniyati yetmaganlar oq moy surtishadi. Unashadirish marosimida mehmonlar ovqatlanib bo‘lgach, ular orasidan yoshi ulug‘ va obro‘li kishi bismillohi rahmoni rahiyim deb, birin-ketin avval ikkita tandir non, keyin ikkita patir non, so‘ng ikkita qatpatir, oxirida ikkita qatlamani bitta qilib sindiradi. Ikkita nonni birdaniga sindirish oson emas. Lekin shunday qilinmasa unashadirish marosimi o‘tgan deb hisoblanmaydi. Non sindirilganidan so‘ng «yoshlarning baxtini bersin», deb duo qiladi. Shu bilan yigit va qiz unashadirilgan hisoblanadi. Unashadirilgan yigit va qiz patiyaxonda deyiladi [1]. Hozir bo‘lganlar sindirilgan nonni yeydilar, qolganini ro‘molga tugib uyga olib ketadilar.

Non sindirilgan payti ikki tomonning kelishuvi sodir bo‘ladi. Buni karda deyilib, unda kuyov tomonidan nechta mol, qo‘y, echki, paxtalik, un va shu kabi narsalar, ya’ni qalin berishi aniqlab olinadi. Qudalar qalin haqida so‘z ochmaganlar. Shu bois qalin masalasini kelin va kuyovning amakilari yoki tog‘alari hal etishadi. Agar qalin masalasida kelishuvga erishilmasa, keyingi uchrashuvda kelin-kuyovning boshqa amakilari yoki tog‘alari ishtirok etishadi. Ikkinci marta ham kelisha olishmasa, el oqsoqollari yoki so‘zi o‘tagigan qarindoshlari o‘rtaga tushib ikki tomonni kelishtiradi. Qalin masalasi ham har ikki tomonni qoniqtiradigan qilib belgilanadi [2].

Qalin miqdori qizning yoshi, ijtimoiy holati yoki davriga qarab o‘zgarib turgan. Masalan 1925 yilda Panjob qishlog‘ida qalin miqdori 2000 tanga, 72 pud bug‘doy, 12 echki, ayrim hollarda 10000 tanganing o‘zi bo‘lgan [3]. 1928 yilda bu miqdor

Sherjonda 6 bosh qo'y, 6 ta echki, 2 botmon un, 35 funt quyruq, 5 pud guruch va 40 metr surpni, Xo'janqonda 2 to'p ipak, 6 dona ro'mol, 25 metr surp, 5 to'p olacha, 15 bosh echki, 1 bosh buqa, 1 bosh eshak, 2 botmon bug'doy va 75 so'm pulni, Xatakda 450 so'm pul va 1 ta eshakni, To'g'uzda 1 bosh ot va 4 botmon bug'doyni, Sho'robda 100 bosh qo'y, 17 ta chopon va 1 otni tashkil etgan [4]. Ko'hitangga qo'shni bo'lган Boysunning Padang qishlog'ida 300 so'm pul, 3 pud guruch, imkoniyati yetmaganlar 2 bosh qo'y, 3 bosh echki, 45 arshin surp, Pasurxida 100 so'm, Qayroqda 36 pud bug'doy va 200 tanga pul, biron yetim qizni boqib olgan kishilar esa qalin sifatida 25 so'm pul, 6 funt moy, 5 pud kunjara olishgan [5]. Taqqoslash uchun Sarosiyo tumanidagi Fayzova qishlog'ida 1 bosh sigir, 1 botmon guruch, 10 pud bug'doy va 60 so'm naqd pul berilgan [6].

Xuddi shu davrda Sayrobda qalining o'rtacha miqdori 55 bosh qo'y va echki, 20 pud bug'doy bo'lган. Qalinga matolar olinmagan. Agar kuyov mulksiz bo'lsa, u odatga ko'ra, qaynotasining uyida ishlab bergan. Qalining berilishiga qarab to'y muddati cho'zilib turgan [7, C.24].

Qizilolmada oldiniga kuyovlar o'tin yordirib sinalgan. Qalin miqdori 1 qop un, 1 qop oq qand, 8 ta qo'y, hamyonda pul, guruch, moy va shunga o'xhash narsalar bo'lган. Kuyov tomon kelinni olib ketguniga qadar muayyan vaqt zarur bo'ladi. Sharoitiga qarab, kimdir olti oy, kimdir bir yoki ikki yil ichida kelinni tushirib oladi. Shu davr oralig'ida kelin tomon har hayitda sayillik olib turadi. Agar yoshlar beshikdayoq unashadirib qo'yilgan bo'lsalar, to 17 yoshga to'lguniga qadar sayillik yuborib-olib turiladi. Nikoh to'yiga qizning ota-onasi ham jiddiy tayyorgarlik ko'rib sep tayyorlaydilar. Xatak va Qorabog' qishloqlarida qiz uchun tayyorlangan sep to'qqiz deyiladi. Negaki, u to'qqizta turli mato va taqinchoqlardan iborat bo'ladi. Unga: kelin kiyib yurishi uchun o'nta oddiy, o'nta mayda, beshta katta, to'rtta o'rta ro'mol, shuningdek, adres, shoyi, atlas, chit, satin va turli taqinchoqlar – oyna, isirg'a, bilaguzuk, xapavand va boshqalar kiradi. Sepga solish uchun bozordan olib kelingan mato va taqinchoqlarning hammasi kola deyiladi. Umuman olganda ota-onaning qiziga beradigan sovg'asi sep, kola va to'qqiz kabi nomlar bilan ataladi [8].

Sayrobda sep uchun 3 dona gilam, 5 ta ko'rpacha, 2 ta namat, 2 ta rangli po'stak, to'qqizta yostiq, 2 ta bo'g'jama, 1 ta mapramach, bitta sandiq va turli idish-tovoqlar, 10 ta oyna xalta, 15 ta kurta, 10 ta ro'mol, 1 ta shoyi peshonabog', ipak va baxmaldan qilingan 4 ta ayollar kamzuli [7, C.24], Qorabog'da esa 4 ta gilam, 2 ta sandiq, 10 ta girdixona ko'rpa, 10 ta yostiq berilgan.

Sho'rob yaqinidagi Sarosiyo qishlog'i tojiklarida sovchi ishini bitirib ketganidan so'ng fotiha to'yi qilinadi. Unda to'rtta qo'y, ikki qop guruch, sabzi,

kartoshka, 50 tagacha ko‘ylak beriladi. Bu yerda ko‘rpa tikar, ijob to‘y, bet ochar (rukishod) marosimlari o‘tkaziladi [9, B.236].

To‘ydan bir hafta oldin Xatmi Qur’on o‘qitiladi. Bunda oilaning eng yaqin a’zolari yig‘ilishadi. Domla xatm tushirib, uning savobini o‘tganlarga, shu uydan umidvor bo‘lganlarga bag‘ishlaydi. Shundan keyin to‘y bo‘lib o‘tadi. Bog‘lidara, Bedak, Yoriqsoy, Zarautsov, Kalapo‘shqiya, Tangidevon, Xatak, Xo‘janqon, Chohak qishloqlarida nikoh to‘yi dushmanba kuni o‘tkazilgan. Ertalab soat o‘nlar atrofida kuyov o‘z jo‘ralari bilan kelining uyiga keladi. To‘y kuni qiz tomonga qo‘y-echki, meva-cheva, o‘nta tandir non, o‘nta patir non, o‘nta qatlama va o‘nta qatpatirdan iborat to‘y jo‘natiladi. Har bir turdag'i nondan bittasi kulcha bo‘ladi. Kuyovning oldida bitta shouloq, qalin uchun qo‘ylarini olib keladi. Bitta qo‘yning shoxiga ro‘mol bog‘langan [10].

To‘y kuni nikohdan oldin kelinni jo‘natishda vakil ota so‘raladi. Vakil ota kelinning tog‘asi, akasi yoki amakisi bo‘lgan. Qizning ota-onasi oldindan vakilini kimga berish kerakligini aytib qo‘yishadi. Uдумга ko‘ra, ikki kishi kelinning oldiga kelib vakilingni kimga berding deb so‘rashadi. Kelining dugonalari vakilingni hali aytma deb turishadi. Kelin ko‘pincha tong otguniga qadar vakilini kimga berishini aytmagan. Tongga yaqin, vakilini kimga berishini aytadi. Vakilning ismini eshitgan kishilar isboti deyiladi. Ular mullaga qizning vakilini kimga bergenligini aytib guvohlik berishadi. Vakil shu qiz bilan yigitning orasida bel hisoblanadi. Agar er xotiniga qaramasa, ayoli kasal bo‘lsa yoki ajrashib ketishsa o‘scha vakil qizni olib ketishi yoki bo‘lmasa, ularni yarashtirishi lozim [1, B. 146-149].

So‘ng kelin va kuyovni nikohlash uchun isiriq tutatilgan boshqa xonaga olib kiriladi. Nikoh kelining uyida o‘qilgan. Nikohda shirin suv, oq paxta qo‘yiladi. Domla ikki kishi guvohligida nikoh o‘qiydi. Nikoh oxirida ularga shirin suv ichirgan.

Qizilolma qishlog‘ida kelin chiqarilayotgan paytda qo‘liga chaqaloq berib, gilamga o‘tqaziladi. Gilamning to‘rt burchagidan to‘rt yigit ko‘tarib eshikdan ko‘chaga qadar olib chiqishadi. Ilgarilari kelinni ot yoki eshakka mindirib jo‘natishgan. Otga kelining amakisi, tog‘asi, tug‘ishgan akasi yoki ukasi mindirib borgan. 1970-yillarga kelganda kelinni mashinaga mindirib jo‘natish boshlandi.

Kuyov kelinni olib ketayotgan vaqtida idish qaytdi degan marosim ham bo‘lib o‘tadi. Unda kuyovga bitta to‘n, bitta belbog‘, bitta qo‘yning son go‘shti, kuyov tomon to‘yga olib kelgan tandir nondan ikkita, patirdan ikkita, qatlamadan ikkita, qatpatirdan ikkita, meva-chevalardan esa, bir-bir hovuch solib jo‘natilgan.

Kelinni olib kelgan kishini rozi qilish uchun unga to‘n va belqars berishgan. Shundan keyin kuyov kelinni otdan tushiradi. Kelining ko‘rpa-to‘shaklarini tushirib olgan kishiga bir kiyimlik mato beriladi. Bu marosim tag bosdi yoki yuk bosti deb

ataladi. Kelin otdan tushgach kelin oldiga chiqish marosimi o'tkazilgan. Kelinni eng yaqin kishilari tushirib oladi. So'ng uni kuyovning ota-onasi, opasi, aka-ukasi kutib oladi. Kuyovning onasi kelinning ota-onasiga kiyit beradi. Bolasi o'lган, bolasiz yoki ajrashgan kishilar kelinni tushirib olmaydi. Qorabog'da qudalar kuyovning uyiga kelishganda o'ng yelkasiga un sepishgan.

Kelin otdan tushirilgach, olovdan o'tkazish marosimi o'tkaziladi. Buning uchun hovlining kirish joyida olov yoqiladi. Bedak, Bog'lidara, Yoriqsoy, Xatak va Xo'janqon qishloqlarida olov hovli eshigining ikki chetida yondiriladi. Qaynona kelinini ikki olov orasidan olib o'tadi. Qorabog'da esa, kyelin-kuyov uch marta olovning oldidan aylantirib olinadi. Bu marosim har qanday ziyon-zahmat, suq va kinnalar, odamlarning yuki olovda yonib ketsin, uyga tozalanib kirsin degan mazmunda bajarilgan [11].

Olovdan o'tkazish marosimi tugaganidan keyin kuyov kelinni chimildiqqa boshlab kiradi. Uyga kirish joyi, ya'ni bo'sag'ada ko'rpa to'shalib, uning ustiga bir kampir ko'ndalangiga yotib oladi. Bu kampir o'ldi marosimi deyiladi. Hamma «momo o'ldi» deb turadi. Kelin va kuyov esa, «momojon, turing, siz o'lman», hali nevaralaringizga ham qarashasiz», deb momoning ustidan hatlab o'tishadi. Momoning qo'lidan ushlab turg'izishadi. Momoning yelkasiga sarpo yopiladi. Momo kelin-kuyovga duo bergach, kuyov kelinni chimildiqqa olib kirgan.

Qorabog'da chimildiq ichida avval oyoqbosti, keyin oyna ko'rsatar marosimi o'tkaziladi. Xatak, Xo'janqon, Bedak, Tangidevon qishloqlarida esa, oyna ko'rsatar va oyoq bosti udumlari bo'lman. Kelin salom o'rniga yuz ko'rimchi marosimi o'tkaziladi. Bunda qaynona va qaynota kelinga ko'rmana berishadi. Bu turkiy xalqlarga xos qadimiy marosim bo'lib, unda kelinning yuzini yopib turgan ro'molini kichkina o'g'il bola cho'p bilan ochadi. Buning uchun bolaga bitta ro'mol berishadi. Kelin-kuyovga shirin suv ichirilgan [12, B. 112-115].

Chimildiqda kelin va kuyov yolg'iz qo'yilmagan. Es-hushli, bolasi bor yangalardan biri uyning burchagida, kelin-kuyov esa, chimildiq ichida yotishgan. Kuyovning uyida yangalar kelinning sochiga zulfak qo'yishgan. Buning uchun avval qoshiqning dastasini moylab keyin olovga toblab qizdirishadi. So'ngra qulquning ikki tomonidagi sochni prujinka qilib buraydi. Zulf kajavadek bo'lib qoladi.

Kelin-kuyov to'ydan keyingi qirq kun davomida chillada saqlanadi. Shu muddat ichida chimildiq xonasi yolg'iz qolmasligi kerak bo'ladi. Mabodo ish yuzasidan boshqa joyga bormoqchi bo'lsa uyga biron kishini, asosan yosh bolani qo'yib ketishi lozim. Kichik chilla chiqmaguncha kelin va kuyov kechqurunlari ko'chaga chiqmaydi. Bolasi o'lganlar, ikki nikohli ayollar va ajrashganlar irim qilinib chimildiqqa kiritilmaydi.

To‘ydan so‘ng kelin erta tongda hovlini supuradi. Ammo unga boshqa ish buyurishmaydi. To yangi tushgan xonadonga moslashib ketguniga qadar unga vaqt berishadi. Agar to‘ydan keyingi uch kun ichida kelinni uy ishlari bilan band qilishsa, bu oiladan darz ketadi, degan fikr bor. Uch kun o‘tgach, qaynonasi kelinga urchuqda oppoq ipak beradi. Kelin avval ipakni urchuqda yigiradi. Shundan keyingina unga ish buyuriladi. Chilla vaqtida kelinlar qora rangli kiyimlarni tikishi mumkin emas. Negaki, baxti buziladi deb hisoblaydilar.

To‘ydan uch kun o‘tgach, kuyov chaqirdi marosimi o‘tkaziladi. Qaynota o‘z kuyovini mehmondorchilikka chaqiradi. Kuyov o‘zining eng yaqin kishilari bilan birga qaynotasining uyiga boradi. Kuyov chaqirdiga dastlab qaynota kuyovning oldiga birinchi bo‘lib oshni qo‘yadi, lekin kuyov ovqatni olmay turadi. Shunda qaynota kuyovni ko‘rmanasi uchun bir buzoq sizga degandan keyingina kuyov ovqatga qo‘l uzatadi. Bu sovg‘a mol boshi deyiladi. Kelin va kuyov mol boshi deb berilgan sigirni meros deb hech qachon yo‘qotmaydi, sotmaydi. Bu sigirming bolasini ham sotmaydi. Qaynotasi bergen sigirning naslini vaqt kelganda o‘zining bolasiga ham bergen [13]. Kuyov chaqirdiga iloji yetgan kishilar qo‘y, uloq yoki qo‘zi so‘ygan, kuyovi va u bilan birga kelganlarga to‘n yopadi. Ayollarga kiyit sarpo berilgan.

An‘anaviy to‘ylar XX asrning 50-60-yillariga kelib asta-sekin transformatsiyaga uchray boshladi. Nikoh marosimlarida kelin-kuyovlarning yevropacha kiyimlarni kiyishi, to‘ylarning kechqurunlari «vecher» tarzida o‘tkazilishi, dasturxoniga turli spirtli ichimliklarning qo‘yilishi odatiy holga aylandi. Shu bilan birga, hududga xos bo‘lmagan odatlarning kirib kelishi kuzatilmoxda. Jumladan, to‘y kunlari kelin-kuyovlarning qabristonlarga borishi, parklarda sayr qilishi shular jumlasidandir.

XULOSA

Umuman olganda, Surxon vohasining aholisi hayotida oilaviy marosimlar muhim o‘rin tutgan. Bu marosimlar kishining tug‘ilishidan tortib to o‘limigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni o‘z ichiga olgan. Yetti yoshga to‘lgan o‘g‘illariga sunnat to‘ylarini o‘tkazish, balog‘at yoshiga yetganda qizlar uchun to‘qqiz seplarini yig‘ish, o‘g‘il bolalar uchun yangi uylar qurish udumga aylangan. Nikoh to‘ylarida bir qator udumlarni amalga oshirishgan bo‘lib, ular aholining yashash joyi va sharoitiga qarab turlichcha bo‘lgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tursunov S., Pardayev T., Tursunov A., Tog‘ayeva M. O‘zbekistonning janubiy hududlarida nomoddiy madaniyat tarixi. –Toshkent: Muhammarr, 2012. – 200 b.
2. Dala yozuvlari, Boysun tumani, Darband qishlog‘i, 2024 yil.

3. Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 96-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 207-varaq.
4. Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 96-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 202,205,206-varaqlar.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 96-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 206, 210-varaqlar.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxiv, 96-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 192-varaq.
7. Кисляков Н.А. Сайробские таджики // «Советская этнография». –Москва: Наука, 1965, №2. –17-27 с.
8. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Qizilolma, Xatak va Qorabog‘ qishloqlari, 2022 yil.
9. Fayzullayeva M. O‘zbek milliy taomlari va tanovul madaniyati. –Toshkent: Tafakkur avlod, 2021. – 360 b.
10. Dala yozuvlari, Sherobod tumani, Xatak, Xo‘janqon, Tangidevon, Bedak, Kilkon qishloqlari, 2003 yil.
11. Tursunov S. Surxondaryo etnografiyasi. –Toshkent: Tafakkur, 2020. – 208 b.
12. Tursunov S., Pardayev T., Qurbonov A., Tursunov N. O‘zbekiston tarixi va madaniyati—Surxondaryo etnografiyasi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – 290 b.
13. Турсунов Н. Н., Алламуратов Ш. А. Этническая история горцев южного Узбекистана //Бюллетень науки и практики. – 2020. – Т. 6. – №. 6. – С. 312-317.
14. Турсунов Н. Н., Алламуратов Ш. А. Развитие торговых отношений и ремесел в бекствах Восточной Бухары //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 3. – С. 348-353.
15. Алламуратов Ш., Джураева У. XIX аср охири – XX аср бошларида шарқий Бухоро бекликларида савдо-сотиқ ва ҳунармандчилик муносабатлари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 105-110.
16. Allamuratova X. O ‘ZBEK ANTOPONIMIKASIDA KONTAMINATSION NOMLAR //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 131-135.
17. Алламуратова X. O ‘ZBEK TILIDA APOTROPEIK SEMANTIKALI ANTROPONIMLAR TASNIFI: Allamuratova Xosiyat, Termiz davlat universiteti o ‘qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 7. – С. 59-64.